Raximova Shaxlo Rajapboyevna , mustaqil tadqiqotchi	
Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ahamiyati	915
Xo'jaqulova Nigora Rustamovna , PhD	
Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning ta'sirini boshqarish	922
Maxmudov Anvarjon Maxmudovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda tijorat banklarining investitsion faoliyatining ekonometrik tahlili	930
Achilov Uyg'unjon Ulug'bekovich , dotsent	
Семья и ее роль в воспитании молодежи	935
Зайналов Жахонгир Расулович , профессор, Бердикулов Журабек , ассистент	
Don mahsulotlari korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining boshqaruv hisobi, auditi va tahlil qilishga oid tadqiqotlarga doir mulohazalar	938
Nosirov Ilhom Abbosovich , i.f.d., Abdilalimov Akmaljon Obidjanovich , mustaqil izlanuvchi	
Повышение эффективности маркетинговой деятельности издательско-полиграфических компаний ..	943
Холмирзаева Феруза Абдуллаевна	
Совершенствование учета качества в предприятиях по хранению и переработке зерна	949
Холбеков Расул Олимович , доктор экономических наук, профессор	
Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy yo'nalishlari	956
Axmedova Nafisa Amriddin qizi	
Iste'molchilarga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini takomillashtirish	962
Ruziyeva Shaxlo Raupovna	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni tashkil qilishning nazariy asoslari	968
Maxmudova Sharifa Elmurodovna , tayanch doktorant	
Tijorat banklari chakana xizmatlari va ularga ta'sir etuvsi omillar	972
Xudayarova Xurshida Abdunazarovna , PhD	
Xalqaro lizing munosabatlarini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda uning rolini oshirish	978
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
Raqamli banklar faoliyatini tahlil qilish (Tinkoffbank misolida)	983
Nabiyeva Feruza Odilovna , tayanch doktorant, Parpiyeva Ra'no Abdurasulovna	
Пути организации инновационных процессов в Узбекистане	988
Насиров Дилшод Фарходович	
Цифровизация банков: риски и стратегии управления финансовыми активами в цифровой эпохе	992
Кодиров Бобур Абдулбори угли , магистр	



XALQARO LIZING MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISH VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA UNING ROLINI OSHIRISH

Latipova Shaxnoza Maxmudovna
SamISI dotsenti

Annotatsiya: Maqolada xalqaro lizingning mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida har bir mamlakat iqtisodiyotiga yangi aktivlarni jalb qilishning samarali usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Xalqaro lizing aynan ana shunday samarali usullardan biri sifatida xorijda ishlab chiqarilgan uskunalarni mamlakatga kiritishga imkon yaratadi. Maqolada xalqaro lizing bozori mamlakatlar kesimida tahlil qilingan bo'lib, uni rivojlantirish va mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro lizing, eksport lizingi, import lizingi, tranzit lizing, lizing subyektlari, xalqaro lizing uyushmalari.

Abstract: The article reveals the content and features of international leasing. In the context of innovative economic development, it is important to use effective methods of attracting new assets to the economy of each country. International leasing, as one of such effective methods, allows the introduction of foreign-made equipment into the country. The article analyzes the international leasing market by country, and also provides scientific and practical proposals for its development and elimination of existing problems.

Key words: international leasing, export leasing, import leasing, transit leasing, lessors, international leasing associations.

Аннотация: В статье раскрыты содержание и особенности международного лизинга. В условиях инновационного развития экономики важно использовать эффективные методы привлечения новых активов в экономику каждой страны. Международный лизинг, как один из таких эффективных методов, позволяет внедрить в страну оборудование иностранного производства. В статье проанализирован международный рынок лизинга по странам, а также даны научно-практические предложения по его развитию и устранению существующих проблем.

Ключевые слова: международный лизинг, экспортный лизинг, импортный лизинг, транзитный лизинг, лизингодатели, международные лизинговые ассоциации.

KIRISH

Ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotining real sektorida sifatli ishlab chiqarish aktivlariga ehtiyoj sezilsa, davlat ishlab chiqarish sektorini rivojlantirishdan manfaatdor bo'ladi. Iqtisodiyot tarmoqlarida xorijiy kapitalning shakllanishini ta'minlaydigan mexanizmlardan biri xalqaro lizing bo'lib, moliyaviy xizmatlarni amalga oshirishda uning ahamiyati katta. Bunda lizing innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishda moliyaviy vosita sifatida maydonga chiqadi. Innovatsion rivojlanishning dastlabki bosqichida lizing uning ishtirokchilari moliyaviy manfaatidan kelib chiqib, ishlab chiqaruvchi, lizing beruvchi va lizing oluvchilarning innovatsion faoliyatlarini samarali tashkil etish va jadallashtirishga katta ta'sir etmoqda.

Xalqaro moliya tizimida har bir davlat iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida xalqaro lizingning taraqqiyotini qo'llab-quvvatlaydi. Biroq xalqaro bozorda raqobatning kuchayishi, milliy qonunchilik hamda soliqqa tortish metodikasidagi tafovutlar xalqaro lizingning rivojlanishi uchun muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa ushbu mavzuning dolzarbligini va mavjud muammolarni bartaraf etish uchun ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishni talab etadi.



ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalqaro lizing munosabatlari lizingga beruvchi (lizing kompaniyasi) tomonidan moddiy qimmatliklarni turli muddatlarga xorijiy lizingga oluvchilarga lizingga berilishi tushuniladi. Lizingning ushbu turi tovarlar import-eksportini rag'batlantirish maqsadida qo'llaniladi. Xalqaro lizingning obyekti bo'lib lizingga oluvchi mamlakatiga eksport qilinadigan uskunalar hisoblanadi.

Xorijiy iqtisodchi olim Jaqueline Mills tomonidan Yevropada lizingning o'ziga xos xususiyatlari va xalqaro lizingning hisobi bilan bog'liq munosabatlar o'rganilgan. Asosiy e'tiborni Yevropa lizing uyushmasining ahamiyati, vazifalari, Yevropa lizing bozorining holati hamda xalqaro lizingning ijobiy va salbiy jihatlarini yoritishga qaratgan ^[1].

Uarda Roshi tomonidan xalqaro lizingning iqtisodiy mohiyati, uni amalga oshirishda xalqaro UNIDRUA konvensiyasining ahamiyati keng yoritib o'tilgan. Olim xalqaro lizingning xususiyatlarini uch tomon ishtirok etadigan moliyaviy lizing asosida yoritib, ular o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishda Konvensiya asosiy huquqiy hujjat ekanligini, unga tayangan holda mamlakatlar o'z faoliyatida milliy lizing munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikni yaratishlari uchun asos sifatida foydalanishlari taklif etilgan ^[2].

Rus tadqiqotchisi V. V. Vesina o'zining ilmiy tadqiqotlarida RFda xalqaro lizingni milliy iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy kapitalni kiritishning bir mexanizmi sifatida yondashgan, xalqaro lizing asosida xorijiy uskunalarni mamlakatga kiritishdagi bojxona munosabatlari, RFda xalqaro lizingni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari o'z aksini topgan. Fikrimizcha, xalqaro lizingga nisbatan bunday ta'rif bir tomonlama yondashuvga ega bo'lib, faqatgina lizing oluvchi nuqtayi nazaridan yoritilgan ^[3].

Yana bir rus olimi P. A. Kostyakov tomonidan xalqaro lizingning nazariy-amaliy ahamiyati tadqiq qilingan bo'lib, u asosiy e'tiborni RFda xalqaro lizing munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning tahlili, xalqaro lizingni ma'lum bir belgilariga ko'ra tasniflash, xalqaro lizingning xalqaro bozordagi moliyalashtirish va investitsiyalash vositalaridan biri ekanligiga qaratgan. Bundan tashqari, xalqaro lizing operatsiyalariga valyuta risklarining salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan ^[4].

Antikov Z. X. Boshchiligidagi olib borilgan tadqiqot ishida xalqaro lizing munosabatlarining asosiy xususiyatlari sifatida lizing obyektining xorijiy lizing beruvchidan turli muddatlarga lizingga olinishi hamda lizing shartnomasi subyektlarining mamlakat norezidentlari ekanligi keltirib o'tgan ^[5]. Shundan kelib chiqib, xalqaro lizing uch yo'nalishda amalga oshirilishini ko'rsatib o'tgan, ya'ni:

- **Eksport lizingi.** Bunda lizingga oluvchi tomon xorijiy ishtirokchi bo'ladi va lizing obyekti eksport shartnomasi asosida mamlakatdan olib chiqiladi;
- **Import lizingi.** Bunda lizingga beruvchi tomon xorijiy ishtirokchi bo'ladi va lizing obyekti lizingga oluvchi mamlakatiga import shartnomasi asosida yetkazib beriladi;
- **Tranzit lizing.** Xalqaro lizingning ushbu turida shartnoma ishtirokchilari turli mamlakatlarda joylashgan bo'ladi.

Mahalliy olimlarimizdan D. I. Ruziyeva tomonidan xalqaro lizingni amalga oshirishda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha fikrlar o'rganilgan. Respublikamizda milliy valyutaning devalvatsiya bo'lishining davom etayotganligi natijasida xorijiy valyutalarda berilayotgan xalqaro lizing kreditlarini qaytarishda muammolarning yuzaga kelayotganligi, tijorat banklari resurslarining umumiy hajmida uzoq muddatli depozitlarning kichik salmoqqa ega ekanligi ham xalqaro lizing kreditlari hajmini oshirishga to'sqinlik qilayotganligi iqtisodchi tomonidan asosiy muammolar sifatida tadqiq qilingan ^[6].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, aksariyat iqtisodchilar xalqaro lizingni o'rganishar ekan, kapital migratsiyasining sabablari eksport va import lizing operatsiyalarining sabablari bilan o'xshashligi tufayli xalqaro lizingni kapitalni eksport-import qilishning bir shakli sifatida ta'kidlashgan. Fikrimizcha, xalqaro lizingga oid quyidagi fikrlar o'rinni hisoblanadi:

- korxonalar yuqori texnologiyali qimmatbaho uskunani xarid qilish imkoniyatiga ega bo'lmagan bir sharoitda xalqaro lizing mahsulotni sotishning muhim manbayi;
- aktivlarni sotib olishda import (eksport) bo'yicha cheklovlarning mavjudligi yoki aktivlarning harakatiga nisbatan har qanday cheklovlarning mavjudligi sharoitida xalqaro lizing aktivlarni qo'lga kiritishning eng samarali usullaridan biri;
- xorijiy kapital harakatiga cheklovlar mavjud bo'lgan sharoitda xalqaro lizing moliyalashtirish usullari diapazonini kengaytirish imkoniyati hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJADAR

Aytish joizki, XX asrning 50-yillarida tadbirkor Genri Shonfeld "Amerika Lizing kompaniyasi" (ALK) deb nomlangan kompaniyani tashkil etishi va uni bugungi kunda AQShdagi ko'plab mutaxassislar mamlakatda birinchi ixtisoslashgan kompaniya deb tan olinishi o'tgan davr mobaynida lizingni ulkan tarmoqqa aylanishi uchun



imkoniyat yaratib berdi. Uning faqat 2000-yillarning boshlaridagi mablag' aylanmasi 242,0 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa-da, asosiy vositalarga investitsiya kiritish umumiy hajmi 780,0 mlrd. AQSh dollariga teng bo'lgan. Shuningdek, AQShdagi uskunalar komplektlarining 30 foizi atrofidagisi korxonalar tomonidan lizing operatsiyalari orqali amalga oshirilgan.

Hozirgi sharoitda aksariyat rivojlangan mamlakatlar, xususan, AQShda lizing beruvchilar uchta asosiy guruhga bo'linadilar: mustaqil lizing kompaniyalari, banklar (ular huzuridagi lizing kompaniyalari) va ixtisoslashgan (bog'liq) kompaniyalar (uskunani ishlab chiqaruvchilari huzuridagi kompaniyalar). Mustaqil lizing kompaniyalariga lizing tarmog'idagi mablag' aylanishining taxminan yarmi, ya'ni 50-52 foizi, banklarga 27 foizi va bog'liq kompaniyalarga 19 foizi, bozorning boshqa ishtirokchilariga esa 2 foizi to'g'ri kelmoqda ^[7].

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning dastlabki bosqichida lizing eng daromadli moliya vositalaridan biri bo'lib qolmoqda. Lizingning tez rivojlanib borishi sabablaridan biri sifatida soliq imtiyozlari, ya'ni innovatsion investitsiyalar qiymatining 10 foizi soliq to'lov summasidan chiqarib tashlanishi sabab bo'lmoqda. Bunday tajribani mamlakatimizda ham qo'llash lizing operatsiyalarining rivojiga, korxonalar asosiy kapitalining yangilashiga olib kelishi mumkin.

Hozirda mavjud lizing kompaniyalarining asosiy qismi yirik texnologiya ishlab chiqaruvchilar tomonidan, qolganlari esa yirik tijorat banklari tomonidan tashkil etilgan. Diqqatga molik bo'lgan tomoni shundaki, AQSh qonunchiligiga muvofiq, tijorat banklariga ayrim moliyaviy operatsiyalar turlarini amalga oshirish ta'qiqlanganligi sababli bevosita banklar tomonidan lizing xizmatlari ko'rsatilmaydi. Lizing kompaniyalari banklardan alohidalashgan. Bundan tashqari, AQShning yirik sug'urta kompaniyalari ham lizing operatsiyalarini amalga oshiradilar. AQSh soliq qonunchiligidan kelib chiqib, xususiy shaxslar ham o'z daromadlariga asbob-uskunani sotib olish hamda uni lizingga berish huquqiga egadirlar. Bunday tajribani o'rganish va uni qonunlarimizni takomillashtirishda ulardan foydalanish qo'l keladi deb o'ylaymiz.

Jahon iqtisodiyotida pandemiya natijasida pasayishlar yuz berishiga qaramay, Yevropa lizing kompaniyalari tomonidan lizing orqali katta miqdorda mablag' investitsiya qilinishiga erishilmoqda. Har yili Yevropa lizing bozoridagi yangi investitsiyalarning 30 foizi yetakchi G'arb davlatlari zimmasiga to'g'ri keladi. Germaniya, Fransiya va Italiya davlatlarida ko'chmas mulk bo'yicha lizing operatsiyalarining hajmi jami Yevropa lizing bozorining 60 foizini tashkil etadi. Lizing xizmatlarining katta qismi mashinasozlik va xususiy xizmatlar tarmog'iga to'g'ri kelmoqda. Avstriyada mashinasozlik tarmog'ida lizingning ulushi 50 foizni, Itadiyada 54 foizni tashkil etadi. Xususiy xizmatlar sohasida esa lizingning ulushi Buyuk Britaniyada 62 foizga, Germaniya va Norvegiyada esa 50 foizdan yuqori ko'rsatkichga yetgan. Yevropa lizing kompaniyalari Yevrolizing uyushmasiga birlashgan bo'lib, uyushma Yevropaning 25 mamlakatidagi lizing beruvchilar manfaatlariga xizmat qiladi. Bundan tashqari, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlarida ham lizing kompaniyalari uyushmalarga birlashgan ^[8].


Xalqaro lizing bozoridagi eng yirik lizing kompaniyalari sifatida Enterprise Holdings Inc., Berkshire Hathaway Inc., McDonald's, Daimler AG, LeasePlan Corporation N. V., General Electric Company, United Rentals Inc., Koninklijke Ahold Delhaize N. V, Tokyo Century va Ford Motor kompaniyalari faoliyat yuritishmoqda.

Jahon lizing bozorida garchi pandemiya davrida pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, (2019-yilda 1362,38 mlrd. AQSh dollari, 2020-yilda esa 1338,19 mlrd. AQSh dollari), umumiy holatda 2005-2020-yillar davomida bozor hajmi 125 foizga oshgan ^[9]. Bozorda asosan uch qit'a Shimoliy Amerika, Yevropa va Osiyo mamlakatlari yetakchilik qilmoqda. So'nggi yillar davomida lizing bozorida o'sish asosan, Osiyo mamlakatlari hissasiga, aynan Xitoy, Tayvan va Janubiy Koreya zimmasiga to'g'ri kelmoqda (1-jadval). Xitoy bank assotsiatsiyasining hisobotiga ko'ra, 2021-yilda garchi pandemiya butun mamlakat iqtisodiyotiga o'zining ta'sirini ko'rsatgan bo'lsa-da, moliyaviy lizing sektori barqaror darajada o'sishga erishdi ^[10].

1-jadval: Hududlar kesimida xalqaro lizingning hajmi va o'sishi (2019-2020-yy.) ^[11]

№	Yillik hajmi (mlrd. AQSh dollari)	Yillik hajmi (mlrd. AQSh dollari)	2019-2020-yillarda o'sish (%)	2019-yilda xalqaro lizing bozoridagi ulushi (%)	2020-yilda xalqaro lizing bozoridagi ulushi (%)	2019-2020-yillarda bozor ulushining o'zgarishi
1	Shimoliy Amerika	475,4	-6,7	37,4	35,5	-1,9
2	Yevropa	414,4	-7,5	32,9	31,0	-1,9
3	Osiyo	402,1	13,0	26,1	30,0	3,9
4	Avstraliya	26,4	-3,4	2,0	2,0	0,0
5	Janubiy Amerika	16,3	10,5	1,0	1,1	0,1
6	Afrika	4,5	-39,9	0,6	0,3	-0,2
	Jami	1338,19				

Xalqaro lizing bozori 2022-yilda 1519,9 mlrd. AQSh dollaridan yillik 10,2 foiz o'sish darajasi asosida 2023-yilda 1674,39 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Dunyoda kuzatilayotgan nobarqaror siyosiy holat, iqtisodiy sanksiyalar turli mamlakatlarda xom ashyo narxining keskin o'sishiga, mahsulot yetkazib berish zanjirida esa uzilishlarga sabab bo'lmoqda. Bu esa tovar va xizmatlar inflyatsiyasini yuzaga keltirib, dunyo bozoriga o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. 2027-yilda xalqaro lizing bozori o'rtacha yillik 9,7 foiz o'sish darajasi asosida 2424,62 mlrd. AQSh dollarini tashkil etishi prognoz qilinmoqda (1-diagramma). 2022-yilda lizing bozorida eng faol hudud sifatida Osiyo-Tinch okeani mintaqasi qayd etgan bo'lsa, Shimoliy Amerika mintaqasi esa ikkinchi o'rinni egalladi.



1-diagramma: Xalqaro lizing bozori hajmi (mlrd. AQSh dollari) ^[12]

Lizing operatsiyalarini shakllantirishda Janubiy Koreya tajribasi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakat qonunchiligiga asosan, asbob-uskunadan foydalanish muddati 5 yildan ortiq bo'lmasa, unda lizing shartnomasini muddatining 60 foizidan kam bo'lmasligi, asbob-uskunalarini sotib olish huquqini majburiy emasligi, qolaversa, hukumatning asosiy iqtisodiy vazifalaridan biri kichik va o'rta biznes sohasini qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'lmoqda. Shuningdek, mamlakatda maxsus lizing kompaniyalariga jami lizing operatsiyalarining 35 foizidan kam bo'lmagan qismini kichik va o'rta biznes sohasiga yo'naltirish bo'yicha maxsus yo'riq-noma amal qiladi.

Mamlakatimizda esa lizing operatsiyalarini rivojlantirishda o'tgan yillar davomida muhim qadamlardan biri sifatida soliq va bojxona imtiyozlarini qonunchilikda belgilanishi bo'lib hisoblandi. Hozirda lizing investitsion faoliyatning dinamik tarzda rivojlanayotgan turi bo'lib hisoblanmoqda. Lizing operatsiyalarining yillik o'sish hajmi o'rtacha 20,0 foizni, xususan, 2022-yil yakunlari bo'yicha yangi lizing bitimlarining hajmi o'tgan yilning shu davri bilan solishtirganda 20,1% ga yoki 522,3 mlrd so'mga oshdi va 3 trln. 115 mlrd. so'mni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin ^[13].

Har qanday mamlakatning rivojlanish darajasi va ulardagi korxonalarining samaradorligini oshirish zamirida innovatsiya va uni rivojlantirish yotadi. Innovatsion taraqqiyot mamlakatda ilmga tayansada, innovatsion g'oyalarni ro'yobga chiqarilishi zamirida lizing xizmatlari yotadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunday sharoitda korxonalariga lizingni yo'naltirish bilan bog'liq moliyaviy quyilmalarni jalb etish, uning o'sishini ta'minlash hozirgi sharoitda modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim moliyaviy vosita bo'lib hisoblanadi.

Xalqaro lizingni amalga oshirishning yuqorida keltirilgan ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, ma'lum bir kamchiliklari, uni amalga oshirishdagi muammolarini ham qayd etish lozim. Asosiy muammolardan biri sifatida xalqaro lizingni amalga oshirishda yuzaga keladigan quyidagi risklarni keltirib o'tishimiz lozim:

- qo'shimcha soliq to'lovlarining yuzaga kelishi bilan bog'liq risk;
- kredit riski;
- aniq loyihani amalga oshirish bilan bog'liq risk;
- siyosiy risklar;
- xom ashyo va materiallarni yetkazib berish bilan bog'liq risk;
- mahsulotni realizatsiya qilish bilan bog'liq risk;
- valyuta riski.

Fikrimizcha, ushbu risk turlarini bartaraf etish, ularning salbiy ta'sirini kamaytirish uchun risklarni xalqaro lizing shartnomasi ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash, risklarni diversifikatsiyalash, lizing oluvchini limitlash-tirish, moliyaviy va valyuta risklarini sug'urtalash talab etiladi. Ushbu chora-tadbirlar orasida valyuta risklarini boshqarish muhim ahamiyatga ega. Xalqaro lizingda lizing beruvchi soliq asosida valyuta riskini to'liq o'z zim-



masiga olishi mumkin. Agarda soliq imtiyozlari lizing beruvchi tegishli bo'lgan mamlakat milliy valyutasida taqdim etilsa, u lizing to'lovlarini subsidiyalashga harakat qiladi. Shu sababli lizing beruvchi har doim xalqaro lizing to'lovlari uchun tegishli bo'lgan mamlakat milliy valyutasida amalga oshirilishiga harakat qiladi. Odatda, lizing oluvchi tushumni o'zining milliy valyutasida olganligi sababli valyuta riskidan sug'urtalanishga harakat qiladi va shuning uchun yuqoridagi talab lizing oluvchiga ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi. Shu sababli xalqaro lizing shartnomasida ana shunday nosuvoflikni bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rsatib o'tilishi shart.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, lizing xizmatlarining mamlakat iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rnini bilmaslik moliyaviy munosabatlarning rivojlantirilishiga to'siq bo'lishi mumkin. Ko'pchilik olimlar lizingni innovatsiyaga yaqin kategoriya sifatida ko'rishmasada, amalda lizingsiz yangi texnologiyalarni joriy etish va harakatini ta'minlash samarasiz bo'ladi.

Umuman olganda, xalqaro lizing ancha keng tushuniladigan termin bo'lib, u innovatsiyalardan amalda foydalanishni jadallashtirishga xizmat qiluvchi moliyaviy vositadir. Xalqaro lizing yangi texnologiyalarni bozorda muvaffaqiyat keltirishini ta'minlaydigan, texnikalarni ishga tushirishga ko'mak beruvchidir.

Xalqaro lizing operatsiyalarini rivojlantirish maqsadida, avvalo, quyidagilarga rioya etish lozim:

- xalqaro lizing munosabatlari bo'yicha sud ishlari samaradorligini oshirish, tomonlar o'rtasidagi munosabatlarda noaniqliklarning oldini olish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni pasaytirish uchun me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish;
- yirik hajmdagi investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun lizing kompaniyalari ixtiyorida katta hajmdagi mablag'ni akkumulyatsiyalash;
- xalqaro lizing asosida uskunani oluvchi (lizing oluvchi) majburiyatlarining bajarilishini kafolatlashi;
- har bir mamlakatning milliy rejimlari asosida amalga oshiriladigan buxgalteriya hisoboti va soliqqa tortish bo'yicha qonunchilikdagi tafovutlarni imkon qadar bartaraf etish va h.k.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mills, Jaqueline (2008): Leasing in Europe and the review of international lease accounting, *Leasing – Wissenschaft & Praxis*, ISSN 1611-4558, Forschungsinstitut für Leasing an der Universität zu Köln, Köln, Vol. 6, Iss. 2, pp. 39-62. <https://www.econstor.eu/bitstream/10419/60295/1/718544773.pdf>
2. Uarda Roshi. A Legal Analysis Of Financial Leasing And Its Unification By Unidroit // European International Virtual Congress of Researchers. –2016-1, p. 15-24. <https://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2016/03/Full-Paper-A-Legal-Analysis-Of-Financial-Leasing-And-Its-Unification-By-Unidroit.pdf>
3. Весина В. В. Специфика организации международных лизинговых сделок в хозяйственной практике российских компаний // *Торговая политика*, № 2/6. 2016. –С. 84-93.
4. П. А. Костяков. Международный лизинг как форма иностранных инвестиций в экономику РФ. Автореферат дисс. на соиск. уч. степ. к.э.н., Москва, –2009.
5. Антиков З. Х., Головенко А. Д. Международный лизинг – современное состояние и проблемы развития // *Вопросы студенческой науки*. Выпуск №9 (61), сентябрь 2021. –С. 56-63.
6. Ruziyeva D. I. Kichik biznesni xalqaro kreditlar hisobidan investitsiyalash // *Iqtisod va moliya*. – №6, 2013. –39-40 b.
7. Афанасьева, Н. Д. Развитие лизинга в зарубежных странах / Н. Д. Афанасьева. – Текст: непосредственный // *Молодой ученый*. – 2020. – № 23 (313). –С. 356-360. –URL: <https://moluch.ru/archive/313/71124/> (дата обращения: 01.11.2023).
8. <https://idfrk.kz/ru/investors/analytics/>
9. David Hamilton. The Global Leasing Report 2022. CEO, Solifi. <https://www.solifi.com/ebooks/global-leasing-report-2022/>
10. https://en.ndrc.gov.cn/netcoo/achiyevements/202210/t20221027_1340873.html (murojaat qilingan sana 17.03.2023)
11. David Hamilton. The Global Leasing Report 2022. CEO, Solifi. <https://www.solifi.com/ebooks/global-leasing-report-2022/>
12. https://www.reportlinker.com/p06229737/Leasing-Global-Market-Report.html?utm_source=GNW
13. https://www.reportlinker.com/p06229737/Leasing-Global-Market-Report.html?utm_source=GNW
14. https://www.reportlinker.com/p06229737/Leasing-Global-Market-Report.html?utm_source=GNW

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.